


“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasida
aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga
olishni o‘tkazishni tashkil etish
bo‘yicha respublika komissiyasi
raisining o‘rinbosari,
Milliy statistika qo‘mitasi raisi

B. Hamrayev
2025-yil “ 20 ” oktabr

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq
xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish uchun
vaqtincha jalb etiladigan xodimlarni o‘qitish bo‘yicha tartib

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish uchun vaqtincha jalb etiladigan xodimlarni o‘qitish bo‘yicha tartib (keyingi o‘rinlarda – Tartib) O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 19-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida” 173-son Farmoniga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish (keyingi o‘rinlarda – ro‘yxatga olish)ni o‘tkazish uchun vaqtinchalik jalb etiladigan xodimlarni o‘qitishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

ro‘yxatga olish – yalpi hisobga olish asosida aholining, uy-joyning soni va tarkibi, iqtisodiy birliklarning tarkibi hamda holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqa ma’lumotlar olinishini ta’minlaydigan tadbir.

ro‘yxatga oluvchi xodimlar – O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rishga va uni o‘tkazishga jalb etilgan, maxsus o‘quvdan o‘tgan voyaga yetgan fuqarolar;

respondentlar – aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish sanasida O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi, lekin aholini ro‘yxatga olish sanasida uning hududidan tashqarida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

ro‘yxatga olish hujjatlari – aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayoniga taalluqli hujjatlar majmui.

axborot tizimi – ro‘yxatga olishning birlamchi ma’lumotlari va yakuniy natijalarini avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

shaxsga doir ma’lumotlar – muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot;

aholining ayrim toifalari:

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari xodimlari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ularning o‘zi bilan birga bo‘lgan oila a‘zolari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlardagi kvotalangan lavozimlarga yuborilganlar;

muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga jalb etilgan harbiy xizmatchilar va ularning yopiq hududlarda yashayotgan oila a‘zolari;

zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish markazlarida, qamoqda saqlash joylarida, tergov hibsxonasida, axloq tuzatish muassasalarida va maxsus muassasalarda yashayotgan (bo‘lgan)lar;

bolalar internatlarida, tarbiya muassasalarida, “Bolalar shaharchalari”da, ijtimoiy muassasalarda, diniy muassasalarda, shifoxonalarda va boshqa sog‘liqni saqlash tashkilotlarida yashayotgan (bo‘lgan yoki davolanayotgan)lar;

uysiz (boshpanasiz) shaxslar.

aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlar – O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, harbiy qismlar va ularning yopiq hududlari, qamoqda saqlash joylari, tergov hibsxonalari, axloq tuzatish muassasalari va maxsus muassasalar, zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari, bolalar internatlari, “Bolalar shaharchalari”, ijtimoiy muassasalar, diniy muassasalar, shifoxonalar va boshqa aholining ayrim toifalariga tegishli bo‘lgan tashkilotlar.

2. Ro‘yxatga olish ishlariga quyidagi toifa xodimlari jalb qilinadi:

respublika darajasida – Milliy statistika qo‘mitasi, vazirlik va idoralar xodimlari, shuningdek, Respublika komissiyasi tarkibiga kiritilgan shaxslar;

hududiy darajada – hududiy statistika organlari xodimlari va hududiy komissiyalar a‘zolari.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimliklari tashkiliy rejalar asosida ro‘yxatga oluvchi vaqtincha xodimlarni tanlab olishni ta‘minlaydi hamda ro‘yxatga olishga jalb qilinadigan xodimlar ro‘yxatini shakllantiradi.

2-bob. O‘qitish ishlarini tashkil etish

4. Ro‘yxatga oluvchi vaqtincha xodimlar maxsus o‘quv jarayonidan o‘tadi va unda quyidagilar o‘rgatiladi:

ro‘yxatga olishning maqsad va vazifalari, unga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar, ro‘yxatga oluvchilarning majburiyatlari va axloqiy qoidalari;

mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnoma;

planshetlarga o‘rnatilgan ro‘yxatga olishning axborot tizimi bilan tanishish va amaliyot mashg‘ulotlari;

muammoli masalalar muhokamasi, xatolar tahlili va yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni tushuntirish.

5. Ro‘yxatga olish jarayonlariga vaqtinchalik jalb etiladigan xodimlar uchun o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan bino yoki xona yetarli shart-sharoitlar (proyektor, doska, Internet tarmog‘iga ulanish imkoniyati va boshqalar)ga ega bo‘lishi lozim.

6. Tuman (shahar) hokimliklari vaqtinchalik jalb etiladigan xodimlarni o‘qishi uchun barcha qulayliklarga ega bo‘lgan binolar yoki xonalar bilan ta‘minlaydi.

7. Ro‘yxatga olish jarayonlariga vaqtinchalik jalb etiladigan xodimlarni o‘qitishni tashkil etish quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

o‘qishda ishtirok etadigan shaxslar ro‘yxatini tuzish;

ishtirokchilarni o‘quv materiallari bilan ta‘minlash (video darslik, taqdimot, tarqatma material, qo‘llanma);

dastur asosida o‘qitishni tashkil etish;

amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

o‘quv va amaliy mashg‘ulotlardan o‘tgan shaxslarning tayyorgarlik darajasini taqdim etilgan ssenariylardagi savollarga hamda mavzular yuzasidan tayyorlangan testlarga javob berish orqali aniqlash.

8. Milliy statistika qo‘mitasi va hududiy statistika boshqarmalari va tuman (shahar) statistika bo‘limlari xodimlarini, respublika, viloyat va tuman (shahar) ro‘yxatga olish shtablari xodimlarini, hududlarga birlashtirilgan vazirlik, idora va tijorat banklari rahbarlari va o‘rinbosarlari hamda ayrim toifalari mavjud vazirlik va idoralarning mas‘ul xodimlarini, shuningdek, respublika hududlaridagi “mahalla yettiligi” xodimlarini o‘qitish jarayonlari Milliy statistika qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) tomonidan ishlab chiqiladigan “Ro‘yxatga olish tadbirida ishtirok etuvchilarni o‘qitish bo‘yicha kalendar reja” asosida amalga oshiriladi.

9. Ro‘yxatga olish uchastkalariga jalb etiladigan xodimlarni o‘qitish hududiy statistika organlari mutaxassislari, oliy ta‘lim muassasalari professor o‘qituvchilari hamda boshqalar tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda Qo‘mita mutaxassislari jalb qilinadi.

10. O‘qitish dasturi va boshqa materiallar Qo‘mita tomonidan ishlab chiqiladi.

11. O‘qitish jarayoni Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturlari asosida, proyeksion qurilmalar va video-texnika vositalaridan foydalangan holda tashkil etiladi.

O‘qitish jarayonida ro‘yxatga olish savolnomasi shakllarini to‘ldirish va boshqa vazifalarni amalda qo‘llash uchun mahallalarda xonadonlarga tashrif buyurgan holda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Amaliy mashg‘ulotlarga **1-2 ish kuni** davomida vaqt ajratiladi.

12. O‘qitish jarayoni ro‘yxatga olish hujjatlarini nazariy o‘rgatish bilan birgalikda, o‘zlashtirilgan mavzular yuzasidan test sinovlariga javob berish, oldindan tayyorlangan ssenariylar asosida savolnomalarni to‘ldirish hamda amaliy mashg‘ulotlar, ya’ni aholi o‘rtasida so‘rov o‘tkazishni, ro‘yxatga olish savolnoma shakllari va boshqa hujjatlarni to‘ldirish tartibini va ulardagi xatolarni tahlil qilish, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni, muammoli vaziyatlarni tushuntirish va o‘zlashtirilgan materiallarni tekshirish orqali amalga oshiriladi.

Bunda vaqtinchalik jalb qilingan xodimlarning asosiy diqqatini ro‘yxatga olish jarayonida yig‘iladigan shaxsga doir ma’lumotlarni sir saqlash, oshkora qilmaslik majburiyatiga qaratish lozim.

13. Ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonlariga jalb etiladigan shaxslarning ishga tayyorlik darajasini aniqlash hududiy statistika organlari tomonidan o‘quv dasturiga asosan test sinovlariga javoblari, ssenariy asosida to‘ldirilgan savolnoma shakllari hamda amaliy mashg‘ulotlar natijalari (ro‘yxatga olish savolnoma shakllarini to‘ldirish ko‘nikmasi, aholi bilan muloqotga kirishish qobiliyati) asosida amalga oshiriladi.

3-bob. Ro‘yxatga olish uchastkalarining xodimlarini o‘qitish

14. Ro‘yxatga olish uchastkalarining faoliyatini tashkil etish uchun “mahalla yettiligi” xodimlari jalb etiladi.

Ro‘yxatga olish uchastkalarida vaqtincha lavozimlar quyidagicha taqsimlanadi:
ro‘yxatga olish uchastkasi boshlig‘i bir vaqtning o‘zida statsionar ro‘yxatga oluvchi – mahalla raisi;

ro‘yxatga olish uchastkasi boshlig‘i o‘rinbosari-profilaktika o‘rinbosari;

ro‘yxatga oluvchi xodimlar (zaxira xodimlarni qo‘shgan holda) – hokim yordamchisi, ijtimoiy xodim, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, soliq inspektori va boshqa jalb qilinadigan xodimlar.

15. Qo‘mita va hududiy statistika boshqarmalarining o‘qitish uchun mas’ul murabbiylari, vaqtinchalik jalb qilinadigan “mahalla yettiligi” xodimlarini (keyingi o‘rinlarda – “mahalla yettiligi” xodimlari) qo‘mita tomonidan tasdiqlangan dastur asosida **3 ish kunida** o‘qitadi va **2 ish kunida** amaliy mashg‘ulotlardan o‘tkazadi.

O‘qish jarayonlarini yakunlagan “mahalla yettiligi” xodimlari o‘zlashtirilgan mavzular yuzasidan 1-ilovaga muvofiq oldindan tayyorlangan ssenariylar asosida savolnomalarni to‘ldirishi va test sinovlariga 2-ilovaga muvofiq javob berishi zarur.

Amaliy mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli tugatgach, ro‘yxatga olish uchastkasi xodimlari tuman (shahar) ro‘yxatga olish shtablaridan o‘ziga tegishli bo‘ladigan barcha hujjatlarni (lavozim yo‘riqnomasi, video darsliklar, qo‘llanma v.b.) qabul qilib oladi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

16. Ushbu Tartib, ro‘yxatga olishni o‘tkazish uchun vaqtinchalik jalb etiladigan Milliy statistika qo‘mitasi tizimi xodimlari, hududlarga biriktirilgan vazirlik va idoralar, ayrim toifalari mavjud vazirlik va idoralar hamda respublika hududlaridagi “mahalla yettiligi” xodimlarini o‘qitish uchun mo‘ljallangan.

O'zbekiston Respublikasida
aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni
o'tkazish uchun vaqtinchalik jalb etiladigan
xodimlarni o'qitish bo'yicha tartibga
1-ilova

**Ro'yxatga olishda shaxsga va qishloq xo'jaligiga doir ma'lumotlar yig'ishda
ishtirok etadigan vaqtinchalik xodimlar bilimini tekshirish uchun oldindan
tayyorlangan SSENARIYLAR**

1-ssenariy

1977-yilda qurilgan, 3 xonali umumiy maydoni 79,4 metr kvadrat, shundan yashash maydonlari esa 48,5 m.kv. bo'lgan, devorlari betondan, gaz tarmog'idan boshqa barcha qulayliklarga (qulayliklar barchasi uy ichkarisiga kiritilgan) ega bo'lgan ko'p kvartirali xonadonda 6 ta kishidan iborat (ota, ona, o'g'il, o'g'ilning turmush o'rtog'i, o'g'ilning yangi tug'ilgan farzandi, ushbu joyda doimiy yashovchi, ammo uzatilgan qizi) 1 ta uy xo'jaligida yashaydi.

Uy xo'jaligi a'zolarining barchasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lib, kelindan boshqasi o'zbek millatiga mansub hamda o'zbek tilida suhbatlashadilar, shuningdek, barchasi rus tilida ham bemalol suhbatlashadi, kelini esa qoraqalpoq millatiga mansub, ona tili qoraqalpoq bo'lishiga qaramay u ham o'zbek tilida suhbatlashadi. Barcha uy xo'jaligi a'zolari ilmiy darajaga ega emas.

Uy xo'jaligi a'zolari kelishgan holda o'g'ilni birinchi ko'rsatilgan shaxs sifatida ko'rsatdilar.

Uy xo'jaligi a'zolarining barchasi rasmiy nikohda.

Birinchi ko'rsatilgan shaxsning ota-onasi 1958 (2-iyul) va 1964 (8-dekabr) yillarda Navoiy viloyatining hozirgi Karmana tumanida tavallud topishgan. Toshkentga 1985-yilda ko'chib kelishgan. Xorijiy mamalkatda bir yildan ortiq muddatda bo'lishmagan. Hozirda nafaqaga chiqishgan bo'lib, pensiyada bo'lganliklari uchun hech qayerda ishlashmaydi va ish izlamagan. Ona 3 farzandni dunyoga keltirgan bo'lib, birinchisi tug'ilganida nobud bo'lgan. Ota-onaning ikkisi ham umumiy oliy ta'lim darajasiga ega.

Birinchi ko'rsatilgan shaxs 1988-yil 8-aprelda Toshkent shahrining Hamza tumanida tavallud topgan. 2011-2013-yillar oralig'ida Koreya Respublikasida magistratura bosqichida o'qib kelgan, ingliz, koreys tillarida erkin suhbatlashadi.

Hozirda Olmazor tumanida joylashgan vazirlikda bo'lim boshlig'i lavozimida ishlaydi, ammo bu uning asosiy daromadi emas, shu bilan bir qatorda tadbirkorlik bilan ham shug'ullanadi.

Birinchi ko'rsatilgan shaxsning turmush o'rtog'i 1994-yil 14-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't tumanida tug'ilgan bo'lib, ushbu uyga 2017-yil turmushga chiqish sababli ko'chib kelgan. Xorijiy mamlakatlarda bo'lmagan. Bir farzandning onasi. Hech qayerda ishlamaydi, ish izlamagan, negaki, uyda uy ishlari va bola parvarishi bilan band. Turmush o'rtog'i qaramog'ida. Qoraqalpoq davlat universiteti bakalvr bosqichini tugatgan.

Birinchi ko'rsatilgan shaxsning farzandi (o'g'il) 2018-yil 1-iyunda mazkur aholi punktida tug'ilgan. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga boradi.

2 - ssenariy

Uy 2018- yilda qurilgan, 7 xonali, umumiy maydoni 8 sotixni tashkil qiladi.

Shundan, bino joylashgan maydon 4 sotix bo'lib, yashash maydonlari 3 sotixni tashkil qiladi. 1.5 sotix tomorqa yeri bo'lib, uning 1 sotixiga issiqxona tashkil qilingan va unda pomidor hamda bodring ko'chatlari ekilgan.

Uy devorlarining yarimi paxsa, ko'pgina qismi xom g'ishtdan iborat. Gaz tarmog'i, elektr tarmog'i markaziy tarmoqqa ulangan, issiq suv ta'minoti mavjud bo'lmagan, suv ta'minoti bosma kran orqali amalga oshiriladigan, hojatxona uy tashqarisida qazilgan chuqur hisobiga amalga oshiriladigan, kanalizatsiya ham qazilgan chuqurlar hisobiga, chiqindilarni haftaning shanba kuni maxsus mashina olib ketadi. Internetdan foydalanish mobil aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi.

Uy xo'jaligi a'zolari dushdan foydalanadi. Uy xo'jaligidagi isitish tizimi qurilmasini uy xo'jaligi a'zolarining o'zlari o'rnatgan bo'lib, ushbu qurilma hisobiga isitish amalga oshiradi.

Hovlida 6 ta kishi (ota, ona, o'g'il, o'g'ilning turmush o'rtog'i, o'g'ilning farzandi (qiz), ushbu joyda vaqtincha yashovchi, ammo boshqa Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida doimiy yashovchi jiyani (otaning jiyani) (erkak) yashaydi.

Hovlida yashovchilar 2 ta uy xo'jaligini tashkil qiladi. Uy xo'jaligi a'zolarining barchasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lib, o'zbek millatiga mansub hamda o'zbek tilida suhbatlashadilar hamda qo'shimchasiga, ota hamda o'g'il rus tilida bimalol suhbatlashadi. Barcha uy xo'jaligi a'zolari otaning jiyanidan tashqari ilmiy darajaga ega emas. Jiyani esa PhD ilmiy darajasiga ega.

Ota-onalar rasmiy nikohda, o'g'ilning nikohi ro'yxatga olinmagan, jiyan qonuniy ajrashgan.

Uy xo'jaligi a'zolari kelishgan holda otani birinchi shaxs sifatida ko'rsatdilar.

Birinchi ko'rsatilgan shaxs 1965- yil 2- fevralda Toshkent shahrining Hamza tumanida tavallud topgan. Hozirda tumanda joylashgan kasb-hunar kollejida direktor o'rinbosari lavozimida ishlaydi. Birinchi ko'rsatilgan shaxs umumiy oliy ta'lim darajasiga ega bo'lib, 1999-2001- yillar oralig'ida Rossiya Federatsiyasida malaka oshirib qaytgan.

Birinchi ko'rsatilgan shaxsning turmush o'rtog'i 1967- yil 25- sentabrda Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanida tug'ilgan bo'lib, ushbu uyga 1990- yil turmushga chiqish sababli ko'chib kelgan. Xorijiy mamlakatlarda bo'lmagan. Bir farzandning onasi. Yaqinda mazkur tumandagi maktabda ishlab nafaqaga chiqqaniga qaramasdan hamon shu maktabda ona tili fanidan dars beradi. Ham ish haqi oladi, ham nafaqa oladi. Ish haqini asosiy daromad manbai deb hisoblaydi. Andijon davlat universiteti bakalavr bosqichini tugatgan.

Birinchi ko'rsatilgan shaxsning o'g'li 1990- yil 2- avgustda mazkur aholi punktida tug'ilgan. TDIUning magistraturasini bitirgan bo'lib hozirda tadbirkorlik bilan shug'ullanish evaziga oyiga 5 mln so'm daromad topadi.

Shuningdek, tomorqasida mahsulot yetishtirib sotish evaziga qo'shimcha daromadi mavjud. Asosiy daromad sifatida tomorqadan tushgan daromadni ko'rsatdi.

Birinchi ko'rsatilgan shaxsning kelini 1993- yil 13- mayda Toshkent shahrining Sobir Rahimov tumanida tug'ilgan bo'lib, mazkur uyga 2017- yilda ko'chib kelgan.

Hozirda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti bakalavr bosqichida tahsil oladi. Kasb-hunar kollejini tamomlagan. Universitetdan oladigan stipendiyasi asosiy daromadi hisoblanadi. Boshqa hech qayerda ishlamaydi. Bir farzandning onasi.

Birinchi ko'rsatilgan shaxsning nevarasi (qiz) 2023- yil 2- noyabrda mazkur aholi punktida tug'ilgan.

Birinchi ko'rsatilgan shaxsning jiyani 1978- yil iyul oyida Toshkent viloyatining Chinoz tumanida tavallud topgan. Toshkentga 2005- yilda ko'chib kelgan. Xorijiy mamlakatda bir yildan ortiq muddatda bo'lmagan. Hozirda nogironlik nafaqasini oladi, lekin shunga qaramasdan o'zining xususiy chorvachilik fermasiga ega, ferma yashab turgan aholi punktida joylashgan. Oliy ta'lim (magistr) darajasiga ega.

**Ro'yxatga olishga vaqtinchalik jalb etiladigan xodimlarning olgan nazariy
bilimlarini tekshirish uchun
TEST SINOVLARI**

F.I.O.: _____

1. O'zbekiston Respublikasida 2026- yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish savolnomasi nechta shakldan iborat?

- A. 5.
- B. 6.*
- D. 7.
- E. 8.

2. "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq qanday sana (kritik moment) aholini ro'yxatga olish sanasi hisoblanadi?

- A. aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va hisobga olish amalga oshiriladigan aniq payt.*
- B. aholini ro'yxatga olish tadbiri bo'lib o'tadigan sana.
- D. aholini ro'yxatga olish vaqtida savolnomalar to'ldiriladigan sana.
- E. aholini sinov tariqasida ro'yxatga olish va asosiy aholini ro'yxatga olish oralig'idagi davr.

3. "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq kimlar aholini ro'yxatga olish vaqtida respondent sifatida ro'yxatga olinadi?

- A. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet el fuqarolari.
- B. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, doimiy yoki vaqtincha yashovchi yoxud vaqtincha O'zbekiston Respublikasida bo'lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi, ammo aholini ro'yxatga olish davrida vaqtincha xorijiy davlat hududida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.*
- D. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi, ammo aholini ro'yxatga olish davrida vaqtincha xorijiy davlat hududida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.
- E. faqatgina O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

4. Aholini ro'yxatga olishning asosiy maqsadi nimadan iborat?

- A. Har bir fuqaroga pasport berish.
- B. Mamlakat aholisi soni, tarkibi va yashash sharoiti haqida aniq ma'lumot to'plash.*
- D. Soliq to'lovchilar sonini aniqlash..
- E. Harbiy hisobni yangilash.

5. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish savolnoma shakllarini to'ldirishda respondentlardan qanday hujjatlar talab etiladi?

- A. shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, uyning kadastr xujjatlari, tug'ilganlik, nikoh to'g'risidagi guvohnomalar, diplom va shahodatnomalar.
- B. shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, uyning kadastr hujjatlari.
- D. faqatgina shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar.
- E. hech qanday hujjat talab qilinmaydi.*

6. Aholini ro'yxatga olish nechta asosiy tamoyillardan iborat?

- A. 3.
- B. 5.*
- D. 4.
- E. 8.

7. O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishda maxsus vakolatli organni ko'rsating.

- A. Ichki ishlar vazirligi.
- B. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.*
- D. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi.
- E. Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

8. Aholini ro'yxatga olish paytida vaqtincha chet elda bo'lgan shaxslar qanday hisobga olinadi?

- A. Hisobga olinmaydi.
- B. O'sha joyda doimiy yashovchi aholi sifatida, "vaqtincha chet elda" deb belgilanadi.*
- D. Chet eldagi aholi qatorida hisoblanadi.
- E. Keyinchalik alohida ro'yxatda qayd etiladi.

9. O'zbekistonda sinov tariqasidagi aholini ro'yxatga olish qaysi yilda o'tkazilgan?

- A. 2020-yil.
- B. 2021-yil.*
- D. 2022-yil.
- E. 2023-yil.

10. O‘zbekistonda sinov tariqasidagi qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish qaysi yilda o‘tkazilgan?

- A. 2020-yil.
- B. 2021-yil.
- D. 2022-yil.*
- E. 2023-yil.

11. Ro‘yxatga olishda quyidagi qaysi ma’lumotlar so‘ralmaydi?

- A. Yosh va jins.
- B. Millati va fuqaroligi.
- D. Ta’lim darajasi va bandlik holati.
- E. Bank hisobraqamlari va daromad miqdori.*

12. Qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning asosiy maqsadi nimadan iborat?

- A. Qishloq aholisining sonini aniqlash.
- B. Qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumot to‘plash.*
- D. Tashqi savdo ma’lumotlarini yig‘ish.
- E. Xo‘jaliklar foydasini hisoblash.

13. Ro‘yxatga olishda “dehqon xo‘jaligi” deganda nima tushuniladi?

- A. Davlatga qarashli xo‘jalik.
- B. Oila a‘zolari mehnatiga asoslangan, shaxsiy yer uchastkalarida ish yurituvchi xo‘jalik.*
- D. Yirik korxona tarkibidagi bo‘lim.
- E. Faqat chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi tashkilot.

14. Ro‘yxatga olish paytida xo‘jalikda mavjud yer maydoni qaysi holda hisobga olinadi?

- A. Agar yer xo‘jalik foydalanishida bo‘lsa, huquqiy maqomidan qat’iy nazar.*
- B. Faqat xususiy mulkda bo‘lsa.
- D. Faqat ijarada bo‘lsa.
- E. Faqat davlat yerlari bo‘lsa.

15. Ro‘yxatga olish natijalari asosida quyidagilardan qaysi biri aniqlanadi?

- A) Faqat aholi soni.
- B) Faqat qishloqlar soni.
- D) Qishloq xo‘jaligi resurslari, ishlab chiqarish hajmi va tarkibi.*
- E) Sanoat mahsulotlari eksporti.

16. Qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish paytida axborot to'plashda GPS-koordinatalardan foydalanishning asosiy maqsadi nima?

- A. Ro'yxatga oluvchilarning ish vaqti nazoratini ta'minlash.
- B. Xo'jalik obyektlarining aniq geografik joylashuvini belgilash va xaritalashni ta'minlash.*
- D. Xo'jalikning daromadini aniqlash.
- E. Yer maydonlarining huquqiy maqomini tekshirish.

17. Agar xo'jalik ikki tumanda faoliyat yuritisa (masalan, yer maydoni ikki tuman hududida joylashgan bo'lsa), u holda u qaysi tumanda ro'yxatga olinadi?

- A. Har ikki tumanda alohida hisoblanadi.
- B. Xo'jalik bosh ofisi yoki boshqaruv joylashgan tumanda ro'yxatga olinadi.*
- D. Faqat katta yer maydoni joylashgan tumanda.
- E. Hech qaysida hisoblanmaydi, markaziy darajada kiritiladi.

18. Ro'yxatga olish jarayonida "chorva mollari soni" deganda nima nazarda tutiladi?

- A. Faqat hozirda so'yilmagan mollar soni.
- B. Ro'yxatga olish paytida xo'jalikda mavjud bo'lgan barcha tirik chorva hayvonlari soni.*
- D. Faqat yirik shoxli mollar.
- E. Faqat savdoga mo'ljallangan hayvonlar.

19. Ro'yxatga olishda dehqon xo'jaligida mehnat qilayotgan a'zolar haqida qanday ma'lumot to'planadi?

- A. Faqat ularning ism-shariflari.
- B. Yoshi, jinsi, asosiy va yordamchi mehnati to'g'risida ma'lumotlar.*
- D. Faqat ish joyi va manzili.
- E. Faqat oliy ma'lumotga egaligi haqida.

20. Ro'yxatga olishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish to'g'risida ma'lumot nega kerak?

- A. Sanoat ishlab chiqarish hajmini aniqlash uchun.
- B. Xo'jaliklarning bozor faolligi va daromad manbalarini tahlil qilish uchun.*
- D. Faqat soliq organlari uchun ma'lumot tayyorlash maqsadida.
- E. Xo'jaliklarni baholash va reyting tuzish uchun.